

MUQIMIYNING “LOY” SHE’RIDA BUGUNGI KUN DOLZARB MUAMMOLARINING
AKSI

Hamroyeva Sevinch Hamroyevna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Moliya va Buxgalteriya hisobi fakulteti

Buxgalteriya hisobi va audit yo’nalishi

2-kurs talabasi

Ilmiy Rahbar: Muhitdinova Muxlisa Sadriddinovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Muqimiyning “Loy” sheridagi ayrim misralarning ma’nosi bugungi kun muammolarini ta’kidlayotgani haqida fikrlar keltirilgan. Bugungi kunda xalqaro va O’zbekiston miqyosida yo’lsozlik bo’yicha muammolar va ularning innovatsion yechimlari to’g’risida ma’lumotlar va xulosalar berilgan.*

Kalit so’zlar: *Yo’lsozlik, Muqimiy ,Loy, Tashabbusli Budjet, Mening Yo’lim, Yo’l-transport infratuzilmasi*

Аннотация: *В данной статье приведены мнения о значении некоторых строк в поэме Мукими "Лой", которые подчеркивают сегодняшние проблемы. Приведены сведения о проблемах дорожного строительства и их новаторских решениях на международном и узбекском уровне на сегодняшний день. Приведены данные и выводы.*

Ключевые слова: *дорожное строительство, грязь, инициативный бюджет, моя дорога, дорожно-транспортная инфраструктура.*

Annotation: *In this article, there are opinions about the meaning of some lines in Mukimi's poem "Loy" that emphasize today's problems. Information about the problems of road construction and their innovative solutions at the international and Uzbek level today data and conclusions are given.*

Key words: *Road construction, Mud, Initiative Budget, My Road, Road transport infrastructure.*

Milliy adabiyotimiz tarixida XIX asr oxiri-XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitida yetishib chiqqan ijodkorlar adabiy merosi alohida o‘rin tutadi. Bu adabiy muhitning zabardast namoyandasi Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy asarlari hamisha mutaxassislar diqqat markazida bo‘lgan. Shoir ijod namunalari yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Taassufki, ularda Muqimiy asarlari sho‘ro davri mafkurasi talabiga ko‘ra bir tomonlama talqin qilingan. Natijada shoir nazmiy merosi o‘zining asosiy mohiyatidan uzoqlashtirildi. Ya’ni asarlari tahrirga uchradi, qisqartirildi, manbalarda qolib ketdi. Bu esa, o‘z navbatida, shoir adabiy merosini yangicha mezonlar asosida xolis va haqqoniy o‘rganish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi.

Muqimiy milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotida “Sayohatnoma” janrini boshlab bergan. Unda davr ziddiyatlari, chor hukumatining xalq boshiga solgan kulfatlari, zolim va adolatsiz hokim guruhlar ayovsiz tanqid qilinadi, xarob va vayron qishloqlar tasvirlanadi. Muqimiy real voqelik va xalq turmushini sinchkovlik bilan kuzatib, oddiy odamlar hayotini mehr va achinish bilan tasvirlasa, ikkinchi tomondan chor amaldorlari, ularning mahalliy malaylari kirdikorlarini nafrat va gʻazab bilan fosh etadi. Shoir oʻz hajvgoʻylik isteʼdodini ishga solib, munofiq mingboshilar, adolatsiz qozilar, noinsof boylar va boshqalarni asl basharalarini ayovsiz ochib tashlaydi. Muqimiy real muhabbatni, insonni kuylagan. Sheʼrlarining tub mohiyatini inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda doʻstlik, sadoqat, samimiyat vafodorlik, sabot va matonat ulugʻlangan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan. Adolatli va baxtli zamoni orzu qilgan, shunday kunlar kelishiga ishongan („Kelur oxir seni ham yoʻqlagʻudek bir zamon yaxshi“ va boshqalar). Hasrat, shikoyat, norozilik holatlari mavjud boʻlgan sheʼrlarida ham kelajakka ishonch, farovon hayot haqidagi orzu-ideallari aks etgan.

Muqimiy dunyoqarashi va intilishlari bilan muhit oʻrtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yoʻnalishni maydonga keltirgan. Bu uning xajviyotida koʻproq aks etgan. Hajviyoti mazmunan satira va yumorga boʻlinadi. Satiralarida chor amaldorlari, ayrim mahalliy boylarning kirdikorlari ochib tashlangan („Tanobchilar“, „Toʻy“, „Moskovchi boy taʼrifida“, „Hajvi Viktor boy“, „Voqelai Viktor“ va boshqalar)- „Saylov (Adabiyot)“, „Dar mazammati zamona“ va boshqalarda oʻlkaga kirib kelayotgan kapitalistik va gʻayriaxloqiy munosabatlar hamda ularning oqibatlari koʻrsatilgan. Baʼzan, oʻsha davrdagi hukmron qarashlarga ergashib, Dukchi eshon haqida ham hajviy asarlar yozgan („Hajvi halifai Mingtepa“).

Ot, arava, loy, pashsha, bezgak kabi mavzularda 30 ga yaqin hajviy asar yaratgan. Ularda shoir turmushning qoloq va chirkin tomonlari, ijtimoiy ongda nuqsonlar ustidan kulgan, mustamlakachilik azobi, harobalikni zaharxandalik bilan tasvirlagan („Devonamen“, „Koʻsamen“, „Hayron qildi loy“, „Pash-shalar“, „Shikoyati bezak“ va boshqalar). Boshqa bir qator hajviyalarida jamiyat hayotidagi oʻzgarishlarga yangicha munosabat aks etgan („Taʼrifi pech“, „Aroba qursin“, „Loy“ va boshqalar).

LOY

Koʻchaga chiqmoqqa lekin saht hayron qildi loy,
 Qor yogʻib ,qaytib bahor erdi zimiston qildi loy .
 Barfu boʻron ustigʻa tinmay yogʻib boʻlgʻoniga
 Oʻzi ham chogʻimda oʻlguncha pushaymon qildi loy .
 Boʻlmagan qishlarda yomgʻur ,qor oʻlub fasli bahor,
 Bosh koʻtargan sabzani xok ichra pinhon qildi loy .
 Bu faqiru ,boy demay nogoh ayogʻiga cholub,
 Yerga urgaykim ani ,yo rabki polvon qildi loy.
 Koʻchaga chiqqoch Muqimiy kallasin oʻgurturib,

Yaxshi qildi, nafsi kofirin musulmon qildi loy.

Quyida keltirilgan parchani mazmunini dastlabki misralarda shoir mohirona tasvirlab o'tadi. Unda keltirilishicha, shoir ko'chaga chiqmoqqa shaylanib turganda, qor yog'ib bo'lib, endi bahor keldi deganda, yomg'ir yog'di-yu atrof zimiston tus olganini aytib bermoqchi bo'lgan. Misradagi "Zimiston "so'zi Muqimiyning qalbini xira qilgan mummo: ya'ni, yo'llar loy ekanligi yurish imkoni yo'q ekanligi tufayli shunday tus olgan deb yondashsak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Agar masalalar kesimiga qaraydigan bo'lsak, bugungi kunimizda yo'llarni ta'mirlash masalasida eng ko'p tashabbus qoldirilayotgan loyihalarga aylanmoqda.. Hududlar kesimida esa Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Andijon aynan yo'llarning nosozligi masalasidagi loyihalar soni bo'yicha yetakchilik qilmoqda. "Tashabbusli byudjet" loyihasining dastlabki mavsumlarida ham yo'llarni ta'mirlash yo'nalishi doim birinchi o'rinda bo'lgan. Shu sababli keyinchalik xuddi "Tashabbusli byudjet"ga o'xshagan kichikroq masshtabdagi "Mening yo'lim" degan alohida tizim yaratilindi. Chunki bu ko'rinishdagi mummolar nafaqat O'zbekistonda, balki, keng jahon axborot vositalarida ham yo'lsozlik eng og'riqli va muammoli sohalardan biri hisoblanayotgani e'lon qilinmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda anomal ob-havolar ta'sirida yo'llar xuddi urushdan keyingi holatga o'xshab qolgan.

Mustaqillik yillarida Respublika rahbariyati tomonidan kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan qator dasturlar qabul qilingan.. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 martda qabul qilingan "2015-2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi PQ-2313-sonli qarori ham mamlakatimizdagi yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. O'zbek milliy avtomagistralini modernizatsiya qilish ishlarini yakuniga yetkazish borasida qariyb 513 kilometr ga yaqin avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi, buning uchun 1379,4 mlrd. so'm miqdoridagi investitsiya mablag'lari ajratilishi belgilangan edi.. Qayd etish joiz, bu vazifalar ko'lami 2000 yillarga nisbatan 10 barobarga ko'pdir. Yaqin yillarda Yangi O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini yanada oshiradigan ulkan milliy avtomagistral foydalanishga topshiriladi. Natijada yo'l-transport tizimida quyidagi ijobiy o'zgarishlar amalga oshishi kutilmoqda :

- avtomobil transportining respublika ichida yuk va yo'lovchi tashishini 60-70% ga oshishi;
- xalqaro va tranzit avtotashishlarni o'rtacha 45-55% ga ko'payishi;
- rivojlangan yo'l atrofi infratuzilmasining barpo etilishi;
- avariylarni va respublika yo'l-transport majmuining atrof muhitga noxush ta'sirini kamaytirish;
- mamlakat avtotransport kommunikatsiyalarining yagona, yaxlit va samarali tarmog'ini shakllantirishning navbatdagi bosqichini tugallash. Ushbu ijobiy

o'zgarishlar bevosita aholining kayfiyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Zero yuqoridagi she'rda keltirib o'tilganidek, nosoz yo'llar xalq dard i bilan yashagan zabardast shoirning ham boshini egkanligi haqida oxirgi misralarda o'z aksini topgan. XX asr muammolari bugungi kungacha ye tib kelganligi ayanchli ahvol ekanligini barchamiz anglab, shu muammo yo'q qilib, kelajak avlodlar ham shu muammodan qiynalmasligi uchun hissa qo'shaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Saylanma / Muqimiy; G'. Karimov. — T.: «Ma'naviyat», 2009
2. “Ma'naviyat yulduzlari” kitobi (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999)
3. <https://lex.uz/ru>